



KARMANA BEKLIGINING BUXORO XONLIGIDA SIYOSIY VA MADANIY JIHATDAN NUFUZINING ORTISHI

Botirov Nodir Sadir o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi" (Tarix) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17489839>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 28-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 31-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

Shayboniyxon, Abdullaxon II, Karmana, Balx, Miyonqol, Kufin, qozoq, tasavvuf, murid, nohiya, xattot, handasa.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi hukmdorlarining Karmana bekligining siyosiy jihatdan taraqqiyoti, shu yurt aholisining ravnaqi, xalqining tinchligi hamda ilm-fan, madaniyat yo'lidagi faoliyatlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Shuningdek, ularning oqilona siyosati xalqning hurmatiga, farovonligiga xizmat qiladi. Muhammad Shayboniyxon, Jonibek Sulton, Abdullaxon II larning faoliyatiga alohida to'xtalib o'tiladi. Ular temuriylar davrida shakllangan ilm-fan va madaniyatni davom ettirishga harakat qilishgan, o'zlari ham namuna ko'rsatishgan. Maqola orqali bunga guvoh bo'lish mumkin.

Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) Movarounnahr hududiga XV asr oxiridan egallashni reja qilib tayyorgarlik ko'radi va asosiy harakatni XVI asr boshlarida amalga oshirib, dastlab Temuriylar poytaxti Samarqandni egallashga harakat qildi. Birinchi urinish muvaffaqiyatsiz bo'ldi, ikkinchi urinishda esa (1501) Samarqand egallandi va o'z nomi bilan ataluvchi sulolaga asos soldi. Qadimda o'zbek hududlari deb atalgan yurt Turkiston, Darband, Xorazm, Atsrobod, Xurosongacha bo'lgan hududlar o'zbek yerlari deb nom oldi [1].

Asosiy qism. 1509-yil Shayboniyxon Xurosonda yurgan davrda Burunduxon boshchiligidagi qozoqlar Karmana, Miyonqol va Sug'd atroflariga hujum qilib, katta qirg'in o'tkazadi. U yerdagi xalqlarni mol-mulkini talab mehnatga yaroqli aholini qul qilib haydab o'z hududlariga olib ketishadi. Xurosondan qaytgan Shayboniyxon Miyonqolga kelib ahvolni ko'radi, yondirilgan, vayron etilgan bo'sh qolgan qishloqlarni ko'rib, Miyonqol xalqiga qish kelishi bilan o'ch olishga va'da beradi. Qish kirishi bilan 300 mingga yaqin qo'shinni olib qozoqlarga qarshi yurish boshlaydi. Qozoqlarni katta qismini dinsiz ekanligini bilgan Shayboniyxon ularni islom diniga kiritadi, bosh tortganlarni qilichdan o'tkazadi. Shayboniyxonning qishda bu harbiy yurishining sababi Sirdaryoning muzlagan daryodan o'tishi oson bo'lganligidir. Qora Abdol degan joydan o'tib, Jonish Sulton, uning ukasi Tanish Sulton va Jonish Sultonning o'g'li Ahmad Sultonlarni qurshovga olib mag'lub etadi. Burundux Sulton esa bu orada yashirinishga ulguradi. Ammo Shayboniyxon o'ljalarni shunchalik ko'p oladi-ki, behisob don, otlar, tuyalar va boshqa mollarni bir yil davomida tashib

Samarqand va Buxoro tomonlarga olib keladi. Yuz mingga yaqin xotin-xalaj, bolalar, g'ulomlar, qullarni Samarqand, Buxoro, Karmana, Miyonqolga olib keladi. Shayboniyxonning

bergan va'dasi ustidan chiqqaniga butun xalq guvoh bo'ladi.[2] Shayboniyxonning vafotidan keyin (1510) avlodlari hukmronlikni davom ettiradi. Shayboniylar urug'idan yoshi ulug' xonadon vakillaridan hukmdor bo'lish an'anasiga muvofiq, yurtni 1510-1530 yillarda Ko'chkinchixon, undan so'ng 1530-1533 yillarda Abu Said boshqardilar.

Bu davrda Karmanada faoliyat olib borgan Shayboniy hukmdorlari haqida to'xtalsak, quyidagi ma'lumotni keltirib o'tish joiz: Iskandar Sulton-Jonibek bin Xojag'um bin Abulxayrning o'g'li (Jonibek Sulton Shayboniyxonning amakivachchasi bo'lib, Movarounnahr fath etilganda, dastlab, u (1503-1509-yilda) Farg'ona (Axsi)da, so'ng (1510-yilda) Karmanada o'g'illari bilan hukmronlik qilgan va 1529-yilning 20-martida Karmanaga qarashli Miyonqol nohiyasining Kufin qishlog'ida vafot etgan. Uning 12 nafar o'g'li bo'lib, shulardan Iskandar sulton (1561) Isfandiyor sulton, Kepak sulton, Rustam sulton (vafoti 1554) lar asosan Karmana atrofidagi nohiyalarda, Kistan Qaro sulton esa 1526-yildan 1544-yilgacha va Pirmuhammadxon 1546-yildan 1567-yilgacha Balx viloyatlarini boshqarganlar.

Iskandar sulton Jonibek sultonning Toshkent hokimi Mahmudxon (Boburning tog'asi) qizi bo'lmish xotinidan dunyoga kelgan farzandidir va u 15 yoshida Samarqand So'g'di (Miyonqol) ga qarashli Ofarinkent nohiyasida hokimlik qilgan, otasi vafot etgach, Karmanaga uning o'rniga keladi va siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi.

Ubaydullaxon (1533-1540) vafot etgach esa ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun qattiq kurashlar boshlandi. Shayboniyxon avlodlarining har biri toj-taxtga da'vogar edilar. Ularning har biri o'z ota merosi bo'lgan hududlarda mustaqillikka intilar, imkoni bo'lsa, xonlik taxtini egallash ishtiyoqida edilar.

Mamlakatda ro'y bergan siyosiy tanglikdan Toshkent va Turkiston hukmdori, Suyunchxo'janing o'g'li Navro'z Ahmadxon foydalanib qolishga qaror qildi. Samarqand hukmdori, amakivachchasi Abdulatifxon bilan ittifoq tuzib 1540-yilda Buxoroni egalladi va hokimiyatni o'z tarafdorlariga topshirdi. 1548-yilda Abdulatifxon vafot etgach, Samarqand taxtini egalladi. O'z nomidan tanga pul zarb ettirdi. Movarounnahrning ko'p shaharlarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi.

Biroq Karmana va Miyonqol hukmdori Iskandarxon va uning o'g'li Abdullalar Navro'z Ahmadxonga itoat etishni istamadilar. Bunga qarshi Navro'z Ahmadxon Miyonqolga yurish boshladi. Kuchlar nisbatida Navro'z Ahmadxonning ustunligini bilgan ota-o'g'il Balxga ketishga majbur bo'ldilar. Abdullaxon Balx hukmdori - amakisi Pirmuhammadxonning yordamida Navro'z Ahmadxonga qarshi bir necha bor yurish qilganidan so'nggina g'alabaga erishdi. Mag'lub bo'lgan Navro'z Ahmadxon Buxoroni tashlab, Samarqandga qaytdi. So'nggi jangda har ikki tomon ham g'alaba qilishga ko'zlari yetmagach, o'rtada sulh imzolandi. Sulhdan so'ng Abdullaxon Amudaryodan o'tib Maymanaga, Navro'z Ahmadxon esa Buxoroda noibini qoldirib Samarqandga qaytdi va 1556-yilda vafot etdi.

Navro'z Ahmadxon vafoti bilan Iskandar sultonning o'g'li Abdullaxon (tug'ilishi 940/1533) Buxoro taxtini qo'lga kiritadi va an'anaga muvofiq amakisi Pirmuhammadxon (Balx hokimi)ga Buxoroni berib, o'zi Balxga ketmoqchi bo'ladi, biroq bu shartdan norozi Dinmuhammad otasi Pirmuhammad chetda payti Balxni egallab, otasi o'rniga o'zini xon deb e'lon qiladi. Abdullaxon II Pirmuhammadning bu ishidan g'azablanib, yosh jihatdan bosh xonlikka (Pirmuhammadxondan keyin) loyiq bo'lgan otasini Buxoroga keltirib, shu 1561-yili xon deb e'lon qiladi. 1583-yilda otasi vafot etgach, Abdullaxon II rasman xon deb e'lon qilindi.

Shu tariqa, Abdullaxon II Movarounnahrda o'z hokimiyatini to'la o'rnatdi.

Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish jarayonida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Abdullaxon II 1598-yilda vafot etgach, taxtni o'g'li Abdulmo'min egalladi. Biroq o'sha yilning o'zidayoq Abdulmo'min fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Undan qolgan ikki yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Taxt uchun boshlangan kurash natijasida taxtga Abdullaxon II ning amakivachchasi - Balx hokimi Pirmuhammad II o'tqazildi. Pirmuhammad II Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. 1601-yilda u bilan kelib chiqishi ashtarxoniylardan bo'lgan, Samarqand hokimi Boqi Muhammad o'rtasida qonli to'qnashuv yuz berdi. Mag'lub bo'lgan Pirmuhammadxon II o'ldirildi. Shu tariqa, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach, bir asr hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi barham topadi.

Shayboniy hukmdorlari ayniqsa, Jonibek sulton, Iskandar sulton hamda Abdullaxon II davrlarida Karmana bekligining nufuzi nihoyatda oshdi. U mintaqadagi geostrategik joy sifatida muhim rol o'ynadi. Beklikning o'rni har tomonlama yuksaldi. Buxoro xonligidagi eng yirik va nufuz jihatdan baland beklilik mavqeyiga ega bo'ldi.

Bu davrda Karmana bekligining nafaqat siyosiy jihatdan nufuzi ortdi, balki uning madaniy jihatdan ham yuksalishi kuzatildi. Bunga Shayboniy hukmdorlar: Shayboniyxonning o'zi, Jonibek sulton, Iskandar sulton va Abdullaxon II larning xizmatlari benihoya kattadir. Muhammad Shayboniyxon katta jismoniy kuch va harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, u haqda o'z davrida yaratilgan tarixiy asarlarda ko'plab muhim ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu ma'lumotlarda Muhammad Shayboniyxon iste'dodli shoir va zamonasining o'qimishli, bilimdon kishilaridan biri sifatida tasvirlangan. U hokimiyatni qo'lga olgunga qadar, Buxoro madrasalarida ta'lim olib, diniy hamda dunyoviy ilmlarni puxta o'rgangan. Tarixiy asarlarda keltirilishicha, Muhammad Shayboniyxonga mashhur diniy ulamolardan Muhammad Xitoyi ustozlik qilganligi aytib o'tiladi. Shayboniyxonning yetuk shaxs sifatida shakllanishida, albatta, temuriylar tomonidan Movarounnahrda yaratilgan o'ziga xos ilm-fan va madaniyatning ham o'rni katta bo'ldi [3].

Shayboniy hukmdorlar ilm-fanga qiziqishi, unga homiylik qilganliklari uchun ham mamlakat ravnaqi birmuncha oshgan. Xususan, Shayboniyxonning o'zi ham asarlar yozgan bo'lib, uning asarlari dunyoning turli mamlakatlari olib ketilgan. Shoir sifatida ham ijod qilgan she'rlarida ayniqsa, mamlakatning asosiy yirik ikki shahri Samarqand va Buxoro ko'p yod etilgan.

Jonibek Sulton hukmdorligi davrida uning taklifi bilan Mahdumi A'zam ya'ni Said Ahmad Kosoniy Dahbediy Samarqand viloyatining Dahbed mavzesidan Karmanaga ko'chib keladi. Jonibek Sulton piri Mahdumi A'zamning maslahati bilan Karmanada 3 turdagi madrasa hamda keyinchalik Qur'on va shariat qoidalarini o'rgatuvchi o'rta madrasa tashkil etadi. Bu madrasalarda aholi ilm olish, Qur'onni o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari qisqa muddatli hisob-kitob ishlari, xattotlik, handasa ilmidan ham o'rgatilgan. Bu o'quv yurtlariga hukmdorlar va amaldorlar tavsiyasi va nazorati ostida mudarrislar tayinlangan. Bu mudarrislar beklilik tomonidan yotoqxona va maosh bilan ta'minlangan.

Iskandar sulton yoshligida jangari, irodali kishi bo'lgan esa-da, keyinroq taqvoga juda berilib ketgan edi. U taniqli tasavvuf olimi, Mahdumi A'zam Kosoniy (1461-1543) ning muridi va shogirdi edi. Jaloliddin Ahmad Kosoniy - Mahdumi A'zam, asli farg'onalik, 1514-1516-yillarda Jonibek sulton taklifi bilan Karmanaga keladi, keyin

Ubaydullaxon huzurida Buxoroda turadi. Iskandar sulton, Isfandiyor sultonlar unga yoshligidan murid bo'lib, ta'lim olishgan. Iskandar sulton deyarlik davlat ishlariga aralashmagan, shu sababli Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarini o'sha vaqtdagi xon (Iskandarxon)ga emas, Abdullaxon II ga bag'ishlagan va Iskandar sultonni faqat oliy hukmdor sifatida madh etgan [4]. Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" asarida yozilishicha, Iskandar Sultonning o'g'li Abdullaxonning ismini Jonibek Sultonning piri Mahdumi A'zam qo'ygan ekanlar. Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asarida yozilishicha, Iskandarxonning o'g'li tug'ilganda ism qo'yishni Mahdumi A'zamdin so'raydi. Mahdumi A'zam hadisi sahihda aytilgan "ismlarning eng yaxshisi Abdulla va Abdurahmondin" so'zi bo'yicha chaqaloqning nomini Abdulla deb tayin qilganlar va ushbu so'zni aytganlar: "Abdulla shavkatli podshoh bo'ladi va yurt ahli uning davlati soyasida ko'p yillar tinch bo'ladi" [5].

Hatto V.V.Bartold ham Abdullaxonni Shayboniylar orasida eng qudratli hukmdor ekanligini ta'kidlagan [6]. Haqiqatdan ham shunday bo'ldi, Abdullaxon davrida mamlakat har tomonlama ravnaq topdi, mamlakat siyosiy va madaniy jihatdan ham rivojlandi.

Xulosa. Shayboniy hukmdorlar Karmananing siyosiy va madaniy hayotida alohida iz qoldirdi. Mamlakat obodonchiligida ishlar olib borildi, yurt ahlini ilmu- ma'rifatga da'vat qildi, ilm-fan rivojiga hissa qo'shdi, homiylik qildi. Mamlakat ahlini yagona sulola ostida birlashtirdi. Shayboniylar sulolasi davrida mamlakat ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan hukmdorlarning oqilona olib borilgan siyosati natijasida rivojlanishda davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fazlulloh ibn Ro'zbehon "Mehmonnomayi Buxoro" 1959. "Sankt-Peterburg" 7-8- betlar.
2. Fazlulloh ibn Ro'zbehon "Mehmonnomayi Buxoro" 1959. "Sankt-Peterburg" 67-81- betlar.
3. Anvar Qandaharov "Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlar faoliyati" monografiya. "Tafakkur qanoti" nashriyoti. Toshkent 2018. 26- bet
4. Hasanxo'ja Nisoriy "Muzakkir ul-ahbob" Toshkent. 1993. "A.Qodiriy" 283-284- betlar.
5. Hofiz Tanish al-Buxoriy "Abdullanoma" Toshkent, 1999 "Sharq" I-II kitob 156-157- bet.
6. Bartold Vasiliy Vladimirovich Tom II 2- qism. Moskva. 1964. "Nauka" 487- bet.